

2-dars. O'xshashlik va farq

Tayanch so'zlar:

baland – **past**

keng – **tor**

uzun – **qisqa**

katta – **kichik**



Rasmni bo'yab tugallang.



1

Teleminora.
Toshkent



2

Islomxo'ja
minorasi.
Xiva



3

Minorai
Kalon.
Buxoro



4

Kaltaminor.
Xiva




5

Jarqo'rg'on
minorasi.
Surxondaryo



1. **Balandroq**, **pastroq**, **kengroq**, **torroq** so'zlaridan foydalanib, minoralarni taqqoslang. Rasmdagi qaysi minora ortiqcha? Uni  belgi bilan belgilang.





2. **Uzunroq**, **qisqaroq**, **kengroq**, **torroq** so'zlaridan foydalanib, yo'llarni taqqoslang. Rasmda yana nimani taqqoslash mumkin?






3. **Uzun** tasmani bo'yang. **Keng** halqa chetiga bezak chizing. **Baland** daraxt tagiga maysa chizing.



4. Bo'sh kataklarga shunday gullarni yelimlangki, natijada ular **kichrayib borsin**. Darslikning oxirida berilgan stikerdan foydalaning.



5. Davom ettiring.



6. Navbatdagi qovun qanday bo'ladi?

